



# XALQ DEPUTATLARI UCHKO‘PRIK TUMANI KENGASHINING QARORI

2022 - yil 1 - avgust

VI-62-148-11-162-K/22

Uchko‘prik tuman hokimligi

## **2022-yilning II choragida Uchko‘prik tumanida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi “Byudjet ma‘lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli qarorlariga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarori, shu bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 4-fevraldagi “Uchko‘prik tumanida mahalliy byudjet mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta‘minlash to‘g‘risida”gi VI-50-20-11-162-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27, 29-bandlari ijrosini ta‘minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Uchko‘prik tumani Kengashi sessiyasi

### **QAROR QILADI:**

**1.**Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 4-fevraldagi “Uchko‘prik tumanida mahalliy byudjet mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta‘minlash to‘g‘risida”gi VI-50-20-11-162-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27-bandiga asosan 2022-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar yuzasidan tuman hokimligi Moliya bo‘limi mudiri vazifasini vaqtincha bajaruvchisi S.Umarqulovning hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

**2.**Mazkur qaror bilan quyidagilar:

2022-yil II choragida “Tashabbusli byudjetlashtirish” jarayoni natijalari bo‘yicha ma‘lumotlar 1 va 2-ilovalarga muvofiq;

2022-yil II choragida “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasi mablag‘larining shakllanishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar 3-ilovaga muvofiq;

2022-yil II choragida “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g‘olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**3.**Tuman hokimligi Moliya bo‘limi (Umarqulov), tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvatlash bo‘limi (Akbarov), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (Shokirov) hamda mahalla fuqarolari yig‘inlari bilan birgalikda iyul oyida o‘tkaziladigan “Tashabbusli byudjetlashtirish” jarayoniga keng jamoatchilikni jalb etish bo‘yicha targ‘ibot tashviqot ishlarini olib borsinlar.

**4.**Tuman hokimligi Moliya bo‘limi (Umarqulov), tuman hokimligi axborot xizmati (Ermatov) tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo‘yicha ma‘lumotlarni keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda “Ochiq byudjet” axborot portali hamda hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

**5.**Mazkur Kengash qarori bajarilishini nazorat qilish vazifasi xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi M.Dexqonov, ijrosini ta‘minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari zimmasiga yuklansin.

**6.**Ushbu Kengash qarori rasmiy e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

**Xalq deputatlari Uchko‘prik  
tumani Kengashi Rahbari**



**A. Q. Asqarov**

Xalq deputatlari Uchko‘prik tuman  
Kengashining  
2022 yil 1 avgustdagi  
VI-62-148-11-162-K/22-son qaroriga  
1-ilova

**Tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo‘yicha**

**MA'LUMOT**

**Uchko‘prik tumani**

**01.07.2022-y**

T/r	Ko‘rsatkich nomi	Summa
		(ming so‘m)
1	Yil boshiga qoldiq	<b>21 203,0</b>
2	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga o‘tkazilgan mablag‘lar*	12 755 963,0
3	Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g‘olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar**	7 763 530,0
3.1.	Tadbirlarni amalga oshirayotgan pudratchi tashkilotlarga bajarilgan ishlar uchun to‘langan mablag‘lar	2 265 400,6
3.2.	Tadbirlarni moliyalashtirishga ajratilgan, biroq pudratchi tashkilotlarga to‘lab berilmagan qoldiq mablag‘lar	5 498 129,4
4	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasidagi qoldiq mablag‘lar	5 013 636,0

Xalq deputatlari Uchko'prik tuman  
Kengashining  
2022 yil 1 avgustdagi  
VI-62-148-11-162-K/22-son qaroriga  
2-ilova

**Tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo'yicha**

**MA'LUMOT**

**Uchko'prik tumani**

**01.07.2022-y**

**ming.so'm**

T/r	Bajarilgan tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni	ko'rsatkichlar		
			o'lchov birligi	miqdori	sarflangan mablag'lar
1	Hududiy ichki yo'llar	6	umumiy uzunligi	10774	1 023 408
2	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash	4	soni	4	722 578
3	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
4	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
5	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
6	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	2	umumiy uzunligi		
7	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish		chiroqlar soni		
8	Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish		tadbirlar soni		
9	Boshqa tadbirlar	1	soni	3200	519 414
<b>jami</b>		<b>13</b>	<b>X</b>	<b>X</b>	<b>2 265 401</b>

Xalq deputatlari Uchkoʻprik tuman Kengashining  
2022 yil 1 avgustdagi  
VI-62-148-11-162-K/22-son qaroriga  
3-ilova

**Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi mablagʻlarini shakllantirishi yuzasidan**

MA'LUMOT

Uchkoʻprik tumani

01.07.2022-y  
ming,soʻm

T/r	Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi mablagʻlarini shakllantirish manbalari	Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasiga yoʻnaltirilishi lozim boʻlgan mablagʻlar				Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasiga haqiqatda oʻtkazilgan mablagʻlar	Farqi	Izoh
		1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak			
1	Tuman (shahar) byudjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foiz qismi miqdorida ajratiladigan mablagʻlar	4 939 482,0	4 939 481,0			9 878 963,0	0,0	
2	Tuman (shahar) byudjetining qoʻshimcha manbalarining 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablagʻlar	681 300,0	2 046 000,0	0,0	0,0	2 877 000,0	149 700,0	

2.1.	Shu jumladan	erkin qoldiq mablagʻlari	681 300,0				831 000,0	149 700,0	2021-yildan boʻlgan qarzorlik oʻtkazib berilgan
2.2.		daromadlarning hisobot choraklari yakunlari boʻyicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi		66 000,0			66 000,0	0,0	
2.3.		davlat daromadiga oʻtkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar						0,0	
2.4.		elektron savdo maydonchasida er uchastkalariga boʻlgan huquqlarni sotishdan tushgan mablagʻlar						0,0	
2.5.		Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-197 qaroriga asosan Respublika byudjetidan ajratilgan mablagʻlar		1 980 000,0			1 980 000,0	0,0	
<b>3</b>		<b>Jami ajratiladigan mablagʻlar</b>	<b>5 620 782,0</b>	<b>6 985 481,0</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>12 755 963,0</b>	<b>149 700,0</b>	

Xalq deputatlari Uchko'prik tuman Kengashining  
2022 yil 1 avgustdagi  
VI-62-148-11-162-K/22-son qaroriga  
4-ilova

**Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan**

MA'LUMOT

Uchko'prik tumani

01.07.2022-y  
ming.so'm

T/r	Tadbirning xos raqami (ID)	Jami to'plangan ovozlarning soni	shundan			Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Tadbirning moliyalashtirilishi (ming so'm)						
			onlayn ovozlarning soni	oflayn ovozlarning soni	SMS orqali		Tadbirni moliyalashtirish uchun ochilgan hisobvaraqlar	Tadbirning fuqaro tomonidan kiritilgan dastlabki qiymati	Tadbirni amalga oshirish qiymati*	Ajratilgan mablag'lar	Bajarilgan ishlar uchun to'lab berilgan mablag'lar	Iqtisod qilinish, jamg'armaga qaytarilgan mablag'	Qoldiq mablag'lar
1	1430400093	10 402	273	0	10 129	Katta qashqar MFY ichki yo'llarini asfaltlash va joriy ta'mirlash	401722860302217045204110005	1 080 000	1 080 000	1 080 000	316018,7	-	763981
2	1430400003	9 526	864	0	8 662	Soy buyi mfy karashli Kichik kashkar kishloglarini 3 km uzunligi kengligi 5 metr yullarini asfaltlash	401722860302217045204110006	985 000	930 000	930 000	272640,8	-	657359
3	1430400075	7 222	1 405	0	5 817	Katta qashqar MFY Pastki dasht qishlog' ichimlik suv muammosi	401722860302217065200110002	700 000	700 000	700 000	0,0	-	700000
4	1430400149	6 692	231	0	6 461	Uchko'prik tumani 20-Maktabni tamirlash	401722860302217092100075007	1 000 000	830 000	830 000	240459,8	-	589540
5	1430400066	6 489	1 529	0	4 960	Katta qorako'l MFY Qorako'l va Sherobod qishloqlarini tabiiy gazlashtirish	401722860302217011204018002	520 000	520 000	520 000	519414,4	-	586
6	1430400031	6 487	463	0	6 024	Yangiyo'l MFY Yangiyo'l qishlog'ini asfaltlash	401722860302217045204110007	400 000	303 250	303 250	87221,3	-	216029
7	1430400136	6 071	1 118	0	4 953	Farg'ona viloyati Uchko'prik tumani Katta-qashqar qishlog'ida joylashgan 22-umumiy o'rta ta'lim maktabi sport zalini kapital ta'mirlash.	401722860302217092100075009	420 000	420 000	420 000	121893,1	-	298107
8	1430400065	5 203	1 263	0	3 940	Yangiqishloq MFY, Bog'i bo'ston ko'chasining yo'llarini yaxshilash	401722860302217045204110008	400 000	336 600	336 600	96622,3	-	239978
9	1430400171	4 369	327	0	4 042	Sho'x qishlog'i ichki yo'llariga asfalt yo'tqizish.	401722860302217045204110009	1 080 000	663 680	663 680	190678,8	-	473001
10	1430400078	3 992	66	0	3 926	Uchko'prik tumani 17 umumta'lim maktabni joriy ta'mirga muxtoj	401722860302217092100075011	990 000	970 000	970 000	274725,5	-	695275

11	1430400201	<b>3 827</b>	244	0	3 583	Uchko'prik tumanidagi 1 sonli IDUMI xududini asfaltlashtirish kerak.	401722860302217092300075001	400 000	300 000	300 000	85500,0	-	214500
12	1430400104	<b>2 378</b>	7	0	2 371	Nixol MFY Tiklanish kuchasinidan Masjid va 12-maktab yuli yaroksiz xolatda asfaltlash lozim uzunligi 700 eni 4.5	401722860302217045204110010	300 000	210 000	210 000	60225,7	-	149774
13	1430400098	<b>2 151</b>	24	0	2 127	Yulg'unzor MFY karvon ko'chasi axolisining qilgan murojatiga asosan ichimlik suvi muammosini xal etish	401722860302217065200110003	500 000	500 000	500 000	0,0	-	500000
<b>Jami:</b>								<b>8 775 000</b>	<b>7 763 530</b>	<b>7 763 530</b>	<b>2 265 401</b>	<b>-</b>	<b>5498129,4</b>